O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI IZBOSKAN TUMANI HOKIMINING QARORI

Izboskan tuman, Naqshband ko’chasi, 19-uy, tel:74-312-25-15

2023 - yil 23 - fevral 28-1-22-Q/23 Izboskan tumani hokimligi

Izboskan tuman hokimligining 2023 yil zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ichki ko’chalarni shag’allashda foydalaniladigan transportlar uchun yoqilg’i xarajatlariga mablag’ ajratish to’g’risida

2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat buyudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ -813-sonli Qonuni hamda Xalq deputatlari Izboskan tuman kengashining 2022 yil 31 dekabrdagi VI-39-108-1-22-K/22-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN

1. Izboskan tuman hokimligining 2023 yil zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ichki ko’chalarni shag’allashda foydalaniladigan transportlar uchun yoqilg’i xarajatlariga 100 mln so‘m miqdorida mablag‘ ajratilsin.

2.Tuman moliya bo‘limi (B.Axmedov) va g‘aznachilik bo‘linmasi (Q.Latipov)ga ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda yo‘naltirish va moliyalashtirish topshirilsin.

3.O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq, mutasaddi tashkilotlar qo‘shimcha ajratilgan mablag‘larni belgilangan maqsadlarga sarflanishini ta'minlash vazifasi topshirilsin.

4.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Umarov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **С.Исмоилов**